



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT  
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT SHAHRIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


*Dastlabki ma'lumot  
2024 - yil yanvar- iyul*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 71-203-88-20(21)***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 13 534 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 179 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 355 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar- iyul oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 48 595,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 21 358,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,1%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 27 236,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 375,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>48 595,0</b>	<b>109,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	4 437,3	106,4
Bektemir	1 803,9	110,0
Yunusobod	5 500,5	105,8
Mirzo Ulug'bek	3 620,2	112,2
Mirobod	3 698,3	111,4
Shayxontohur	5 791,1	107,6
Olmazor	3 550,2	109,4
Sirg'ali	2 957,0	113,2
Yakkasaroy	3 841,2	110,8
Yashnobod	3 965,2	110,6
Yangihayot	740,2	113,4
Chilonzor	8 689,9	107,3


2024- yilning yanvar- iyul oylarida 2023- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (113,4 %), Sergeli (113,2 %) va Bektemir (110,0 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar- iyul)




So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,7 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar- iyul oylarida o'sish sur'ati **109,0 %** ni tashkil qildi.



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,9 % bilan 8 689,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,5 % bilan 740,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar- iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 27 236,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023–yilning yanvar- Iyul oylariga nisbatan 6,6 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,0 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan 12,1 % ga o'sdi va 21 358,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 44,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



### CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Chilonzor (20,5%), Uchtepa (13,4 %) va Yunusobod (12,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 44,0 % ni tashkil etib, eng kata ulush Chilonzor (14,6 %), Shayxontohur (13,2 %), Yakkasaroy (10,9 %), Mirobod (10,9 %) tumanlarida kuzatildi.

44,0 %



56,0 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’mda*

Toshkent shahri

15891,1

Yangihayot

4172,4

Uchtepa

14790,9

Chilonzor

31542,4

Bektemir

29237,3

Yunusobod

14536,2

Mirzo Ulug‘bek

10888,0

Mirobod

24203,4

Shayxontohur

15809,6

Olmazor

8737,8

Sirg‘ali

17445,2

Yakkasaroy


28453,6

Yashnobod

13 103,9

2024- yilning yanvar- iyul oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 15 891,1 ming. so‘mni (2023- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan 106,1 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Chilonzor (31 542,4 ming. so‘m), Bektemir (29 237,3 ming. so‘m) va Yakkasaroy (28 453,6 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- iyul), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023 - yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 375,5</b>	<b>122,5</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	<b>63,1</b>	<b>60,5</b>
Bektemir	<b>288,3</b>	<b>89,4</b>
Yunusobod	<b>217,1</b>	<b>191,5</b>
Mirzo Ulug'bek	<b>165,0</b>	<b>98,1</b>
Mirobod	<b>16,3</b>	<b>33,3</b>
Shayxontohur	<b>212,3</b>	<b>174,1</b>
Olmazor	<b>53,8</b>	<b>174,8</b>
Sirg'ali	<b>41,1</b>	<b>97,5</b>
Yakkasaroy	<b>28,2</b>	<b>64,3</b>
Yashnobod	<b>128,4</b>	<b>164,1</b>
Yangihayot	<b>-</b>	<b>-</b>
Chilonzor	<b>161,9</b>	<b>3,6 m.</b>


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- iyul)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-iyun)



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 375,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 122,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1237,4 mlrd.so'mni (123,5%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 138,1 mlrd so'mni (114,6%) tashkil etdi .

2024-yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 237,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (661,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>661,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>48,1 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>150,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,0 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>62,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,5 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>64,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,7%</p>	<p><b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>32,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,3 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>30,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,2 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>78,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,7 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>96,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>7,0 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,01 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>31,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,3 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>26,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>1,9 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>2,4 mlrd. so'm</b></p> <p>0,2 %</p>

2024- yilning yanvar-iyul oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 138 101,1 mln. so'mni (114,6 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 116 060,7 mln. so'm, qo'y va echkilar – 18 783,8 mln. so'mni, otlar – 2 933,4 mln. so'mni, parrandalar – 323,3 mln. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>71 123,6 mln. so'm</b></p>  <p>5,2 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>20 043,7 mln. so'm</b></p>  <p>1,5 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>24 893,4 mln. so'm</b></p>  <p>1,8 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>15 607,1 mln. so'm</b></p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>2 933,4 mln. so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>3 176,7 mln. so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>70,1 mln. so'm</b></p>  <p>0,01 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>37,4 mln. so'm</b></p>  <p>0,003 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>142,3 mln. so'm</b></p>  <p>0,01 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>73,5 mln. so'm</b></p>  <p>0,01 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

**2024- yil 1- yanvar-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 901 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 47 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 854 tani tashkil qildi.**

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>5 637,2</b>	<b>112,8</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	107,9	110,1
Bektemir	104,8	136,1
Yunusobod	735,3	117,6
Mirzo Ulug'bek	584,5	117,3
Mirobod	443,8	112,9
Shayxontohur	1 446,3	104,7
Olmazor	322,2	110,8
Sirg'ali	404,8	113,0
Yakkasaroy	508,8	105,4
Yashnobod	353,6	114,3
Yangiheyot	90,4	144,3
Chilonzor	535,0	126,8

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 637,2 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 60,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>28 986,0</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	<b>673,9</b>	<b>2,3</b>
Bektemir	<b>1 424,4</b>	<b>4,9</b>
Yunusobod	<b>3 904,3</b>	<b>13,5</b>
Mirzo Ulug'bek	<b>986,7</b>	<b>3,4</b>
Mirobod	<b>4 104,1</b>	<b>14,2</b>
Shayxontohur	<b>2 704,1</b>	<b>9,3</b>
Olmazor	<b>380,1</b>	<b>1,3</b>
Sirg'ali	<b>9 827,5</b>	<b>33,9</b>
Yakkasaroy	<b>1 774,7</b>	<b>6,1</b>
Yashnobod	<b>1 229,1</b>	<b>4,2</b>
Yangihayot	<b>574,2</b>	<b>2,0</b>
Chilonzor	<b>1 402,9</b>	<b>4,8</b>


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (9 827,5 mlrd. so'm), Mirobod (4 104,1 mlrd. so'm) va Yunusobod (3 904,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 28 986,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 9 870,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 146,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 19 115,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 120,7 %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 98 930,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi.

### Savdo aylanmasi va ulushi

35,8 %

35 425,5 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

64,2 %

63 505,2 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 63 505,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 64,2 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 16 730 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 258 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 16 472 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (128,1%), Yangihayot (126,1%) va Mirobod (115,2 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>	<b>98 930,7</b>	<b>107,4</b>
Uchtepa	5 478,7	110,8
Bektemir	1 663,6	128,1
Yunusobod	9 641,7	107,9
Mirzo Ulug'bek	8 552,5	109,4
Mirobod	11 978,6	115,2
Shayxontohur	5 979,3	104,9
Olmazor	13 284,2	107,6
Sirg'ali	4 384,0	90,0
Yakkasaroy	11 934,7	105,4
Yashnobod	13 228,3	106,0
Yangihayot	2 323,4	126,1
Chilonzor	10 481,7	103,0